

Vobkent tuman Axborot-kutubxona markazida 2026- yil 14- yanvar kuni 14-yanvar “Vatan himoyachilari kuni” munosabati bilan **“Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish oliy burchimiz”** nomli kitob-albomi taqdimoti o`tkazildi.


Ishtirok etdilar: Vobkent tuman axborot-kutubxona markazi xodimlari, Maktabgacha va maktab ta`limi va 1- son umumta`lim maktabining o`qituvchi va 6- sinf o`quvchilari.

Jami: 45 nafar

Tashkilotchilar: Vobkent tumani axborot-kutubxona markazi xodimlari

Tadbirni o`tkazishdan maqsad: **“Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish oliy burchimiz”** nomli kitob -albomini kitobxonlarga tanishtirish.

Dastavval taqdimotni Vobkent tuman axborot-kutubxona markazi xizmat rahbari Z.Karimova ochib berdi. Ilk so`zini - Vatanimiz ravnaqi, musaffo osmon sofligi, bugungi tinch kunlarimiz: kecha-yu kunduz o`z xizmat burchini bedor o`tayotgan vatan posbonlarimiz matonatidir. Hurmatli harbiy xizmatchilarga – askar va serjantlar, ofitser va generallar, Qurolli Kuchlarimiz faxriylariga va siz aziz bolajonlarga ya`ni bo`lajak harbiylarga vatanimizga sidqidildan xizmat qilishdek sharafli vazifani ado etishda mustahkam sog`lik, ulkan muvaffaqiyatlar, kuch-g`ayrat, oilalaringizga esa yangi – 2026-yilda fayz-baraka va baxt-saodat yor bo`lishini tilayman-deb boshladi. So`ngra navbatni Vobkent tuman axborot-kutubxona markazi xizmat rahbari D.Nabiyevaga berdi.



“Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish oliy burchimiz” nomli kitob-albomi haqidagi ma`lumotlarni birma – bir tartib bilan kitobxonlarga tanishtirgan D.Nabiyeva , **“Vatan himoyasi -muqaddas burch”** nomli rasmiy kitob ko`rgazmasi haqida ham ma`lumot berib o`tdi. Ko`rgazmada joylashgan har bir kitobga alohida ta`rif berdi.

Taqdimotning orasida askarlarga bag`ishlab she`r va qo`shiqlardan namunalari keltirildi.

4-Maktabgacha ta`lim tarbiyalanuvchisi Qiyomova Mehrangiz **“Vatan”** she`ri bilan, Isomiddinov Javohir **“Bir qarab o`ting bizga leytenant”** qo`shig`i bilan barchani hayratlantirdi.

O`z tarixiga va o`z viloyati , tumanining kelib chiqishiga qiziqmagan kitobxon bo`lmasa kerak.

Isomiddinova Dilnoza, Jabbirova Dildora, Homidov Javohir, Qayumov Abdurajablar ushbu kitob – albomga qiziqish bildirdilar.

Ushbu taqdimotdan asosiy maqsad kitob – albomni kitobxonlarga tanishtirish edi va bu taqdimot orqali o`z maqsadimizga erishdik.

Kitob taqdimoti ajoyib ko`tarinki ruhda o`tkazildi.

AKM xizmat rahbari:

D.Nabiyeva